

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
4-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный
журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Qudratillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Абдурахманов Каландар Ходжаевич

Модель компетенций и траектории повышения квалификации в профессиональном образовании в условиях внедрения искусственного интеллекта..... 5

Зокирова Нодира Каландаровна

Человеческий капитал и креативная экономика регионов Узбекистана оценка потенциала и точки роста..... 19

Усманов Анвар Саидмахмудович

Теоретический аспект устойчивого экономического роста..... 32

Мамадалиева Хафиза Холдаровна

Ўзбекистондаги демографик ўзгаришлар ва уларнинг иқтисодий ўсишга таъсири..... 43

Каримова Дилдора Мирсабитовна

Перспективы трансформации демографического потенциала узбекистана в демографический дивиденд..... 52

Саиджаббор Шоира Саидгаффор кизи

Экономическая самостоятельность женщин — историческая эволюция, изменение роли женщин на рынке труда и влияние социально-экономических факторов..... 60

Карабаева Гулнора Шарафитдиновна

Роль креативного сектора в обеспечении молодёжной занятости на рынке труда..... 69

Eshqulova Xilola Shoyimqul qizi, Muradova Alina Anvar qizi

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanish istiqbollari..... 78

Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли

Современные подходы к обеспечению конкурентоспособности предприятий жилищно-коммунального хозяйства..... 85

Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri: imkoniyatlar va xavf-hatarlar..... 90

Abdurahmonov Azizbek Akram o'g'li

Investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy kapital uchun institutsional sharoitlarni takomillashtirish..... 96

Ilyasova Barno Axmadovna

qtisodiyot tarmoqlarini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirish samaradorligini oshirish xususida..... 102

Matkarimova Intizor Atabaevna	109
<i>O'zbekiston hududida aholini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik.....</i>	
Khudoyberdiev Sardor Ismailovich	
<i>The impact of small entrepreneurship on the socio-economic development of regions in our country and its econometric analysis.....</i>	119
Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
<i>Innovatsion iqtisodiyot sharoitida tikuv-trikotaj korxonalarida mehnat bozorining transformatsiyasi va ishlab chiqarishni samarali tashkil etish mexanizmlari.....</i>	129
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
<i>Atrof-muhit o'zgarishlari sharoitida iqtisodiy xavfsizlikning strategik ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish istiqbollari.....</i>	134
Egamnazarov Khusniddin Fakhriddin ugli	
<i>Integrating international experience into sustainable tourism development: evidence from Uzbekistan.....</i>	141
Mirzaeva Matluba Gaybulla kizi	
<i>Digitalization of the banking sector in Uzbekistan: drivers and implications for financial stability.....</i>	152
Nasirova Nargiza Tursunpulatovna	
<i>Namangan viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....</i>	163
Shaxidova Dilafruz Muxtarovna	
<i>Kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlardan foydalanish holati: uning muammolari va yechimlari.....</i>	172
Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna	
<i>The algorithm for forming transfer prices in trade enterprises and their role in segment reporting.....</i>	180
Batirov Farxad Bakitovich	
<i>Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish orqali zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	189
Abdullayeva Aziza Murot qizi	
<i>Ipoteka kreditlash bozorini rivojlantirish istiqbollari.....</i>	194
Alimov Fazliddin Xalimovich	
<i>Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyatini iqtisodiy- statistik tahlili.....</i>	201
Bahriddinova Muazzam Azam qizi	
<i>XItoy davlatida kambag'allikni qisqartirish siyosati.....</i>	209

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIIY IMKONIYATLARDAN FOYDALANISH HOLATI:UNING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Shaxidova Dilafruz Muxtarovna

Namangan Davlat Texnika Universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi

dil.muxtarovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlardan foydalanish, kichik biznes subyektlari uchun ixtisoslashgan yo'nalishlarni aniqlash, resurslardan oqilona foydalanish asosida ularning raqobatbardoshligini oshirish yechimlari va undagi muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, hududiy imkoniyat, ixtisoslashuv, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma, innovatsiya, samaradorlig, moliyaviy faoliyat, strategik rejalashtirish.

СОСТОЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕГИОНАЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ В РАЗВИТИИ МАЛОГО БИЗНЕСА: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Шахидова Дилафруз Мухтаровна

Наманганский Государственный

технический университет старший

преподаватель кафедры «Экономики»

Аннотация. В статье анализируется использование региональных возможностей для развития малого бизнеса, определяются специализированные направления развития малого бизнеса, а также пути и проблемы повышения его конкурентоспособности на основе рационального использования ресурсов.

Ключевые слова: малый бизнес, региональные возможности, специализация, экономическое развитие, инфраструктура, инновации, эффективность, финансовая деятельность, стратегическое планирование.

THE STATE OF USING REGIONAL OPPORTUNITIES IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESSES: ITS PROBLEMS AND SOLUTIONS

Shakhidova Dilafruz Mukhtarovna

Namangan State Technical University

Senior Lecturer, Department of "Economics"

Abstract. *This article analyzes the use of regional opportunities in the development of small businesses, the identification of specialized areas for small businesses, and the solutions and problems of increasing their competitiveness based on the rational use of resources.*

Keywords: *small business, regional opportunities, specialization, economic development, infrastructure, innovation, efficiency, financial activities, strategic planning.*

Kirish.

Bozor munosabatlari shakllanib borayotgan hozirgi sharoitda iqtisodiyotni liberallashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'lamini kengaytirishda muhim rol o'ynamoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida kichik biznesni rivojlantirish uchun turli infratuzilmaviy, tabiiy, mehnat va iqtisodiy resurslar mavjud. Har bir viloyat, tuman yoki shahar o'zining betakror salohiyatiga ega bo'lib, ularni to'g'ri yo'naltirish va ulardan samarali foydalanish orqali hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Masalan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hududlarda agro-biznesni, sanoat korxonalariga yaqin joylarda esa qayta ishlash sanoatini rivojlantirish katta iqtisodiy natijalarga olib keladi.

Shunga qaramay, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim hududlarda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayapti yoki ular yetarlicha tahlil qilinmagan. Infratuzilma muammolari, moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, byurokratik to'siqlar, mahalliy boshqaruv organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan sust yondashuvlar kichik biznesning rivojlanish sur'atini sekinlashtirayotgan asosiy omillardandir.

Shuningdek, tadbirkorlar o'rtasida hududiy imkoniyatlarni aniqlash va baholash bo'yicha yetarli bilim va tajribaning yo'qligi ham mavjud resurslarning samarasiz foydalanilishiga olib kelmoqda. Bu esa hududlar o'rtasida iqtisodiy nomutanosiblikka, ayrim tuman yoki shaharlarning orqada qolishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, u kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlardan foydalanishning real holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, tadbirkorlikni, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar bu sohaning strategik ahamiyatini yana-da oshirmoqda. Kichik biznes faqatgina iqtisodiy rivojlanishning drayveri emas, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, bandlikni oshirish va innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish vositasi sifatida ham muhim o'rin tutadi.[1] Ayniqsa, hududiy darajada kichik biznes subyektlarining faoliyatini chuqur o'rganish, mavjud imkoniyatlar va resurslardan qanchalik samarali foydalanilayotganini aniqlash, ular duch kelayotgan to'siq va muammolarni tahlil qilish, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kun iqtisodiyoti uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kichik biznesni rivojlantirish va uning hududiy aspektlari bo'yicha nufuzli olimlar va amaliyotchilar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda kichik biznesning hududiy farqlari va imkoniyatlari masalasi bir qator ilmiy maqolalar va strategik hujjatlarda yoritilgan.

Josef Schumpeter kichik biznesni iqtisodiy o'zgarishlarning va innovatsiyalarning asosiy manbai sifatida ko'rgan. Uning fikricha, kichik tadbirkorlik bozor iqtisodiyotida yangiliklarni yaratib, raqobatni rag'batlantiradi. Hududiy imkoniyatlar, ya'ni hududning tabiiy va ijtimoiy resurslari, kichik biznesning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, Schumpeter nazariyasiga ko'ra, hududiy ixtisoslashuv kichik biznesni rivojlantirish strategiyasida asosiy omil hisoblanadi..[2] U kichik biznesning yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni jalb qilish va hududiy iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilishdagi o'rnini ta'kidlaydilar. Beck, T., & Demirguc-Kunt iqtisodiy o'sishni inson kapitali va innovatsiya bilan bog'lab, hududiy imkoniyatlar doirasida malakali kadrlar tayyorlash va bilimga asoslangan iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishni ta'kidlaydi. Hududlarda ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish kichik biznesning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.[3]. **Michael Porter** hududiy iqtisodiy rivojlanishda "cluster" (klaster) konsepsiyasini ilgari surgan. Uning fikricha, ma'lum bir hududda o'zaro bog'langan kompaniyalar va xizmat ko'rsatish tashkilotlari tarmog'i kichik biznes uchun sinergiya yaratadi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Hududiy imkoniyatlar, ayniqsa infratuzilma, malakali ishchi kuchi va texnologik bazani rivojlantirish orqali, kichik biznesning raqobat kuchini kuchaytiradi.[4] O'zbekiston sharoitida esa Axmedov.M hududiy imkoniyatlar va tabiiy resurslarga asoslangan kichik biznes tarmoqlarining shakllanishi haqida izchil tahlil beradi. U viloyatlar kesimida solishtirma yondashuv asosida kichik biznesning rivojlanish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatib beradi[5].

Nurmatov.A infratuzilma, mehnat resurslari, moliyaviy vositalar kabi omillarni tizimli ravishda tahlil qilib, har bir omilning hududiy darajadagi ta'sir ko'lamini baholagan. Tadqiqotda shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanmaganligi asosiy to'siq sifatida ko'rsatgan.[6]

Yuqoridagi tahlillar kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlar ularni takomillashtirish iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyatini o'rganadi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni boshqarish va hududiy imkoniyatlar orqali kichik biznesni rivojlantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda kichik biznes subyektlarining hududiy xususiyatlarga mos rivojlanish sur'atlari, mavjud infratuzilmaviy shart-sharoitlar, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi va davlat siyosatining amaliy ta'siri o'rganildi. Bundan tashqari kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlarning o'рни va ahamiyatini o'rganish maqsad qilingan bo'lib, bu borada nazariy va empirik yondashuvlar uyg'unligida kompleks tadqiqot usullari qo'llanildi.

Ushbu mavzuga doir xalqaro va mahalliy iqtisodchi olimlar – xususan J. Shumpeter, Beck, T., & Demirguc-Kunt, M. Porter, J. Shumpeter. A va O'zbekistonlik iqtisodchilar (Axmedov. M, Nurmatov. A va boshqalar) ning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Ularning nazariy yondashuvlari asosida kichik biznes va hududiy imkoniyatlar o'rtasidagi bog'liqlik tushunchaviy asosda yoritildi.

Tadqiqot davomida analitik tahlil metodlari keng qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi va boshqa ochiq manbalar asosida **2020–2024 yillar** davomida kichik biznes subyektlarining soni, ularning hududlar bo'yicha taqsimoti, ish o'rinlari yaratish darajasi tahlil qilindi. Tahlil jarayonida hududlar kesimida kichik biznes rivojlanishining **nomutanosiblik darajasi** aniqlandi. Shuningdek, bir nechta viloyatda kichik biznes bilan shug'ullanayotgan **tadbirkorlar** o'rtasida strukturalashtirilgan so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma savollari quyidagi yo'nalishlarni qamrab oldi: hududiy imkoniyatlardan foydalanish darajasi; qaror qabul qilishda mahalliy boshqaruvning roli, kredit, yer va infratuzilmaga kirish imkoniyati, davlat qo'llovi va axborotga ega bo'lish holati.

Bundan tashqari, tanlab olingan tadbirkor va iqtisodiy soha mutaxassisi bilan chuqurlashtirilgan intervyular tashkil etildi. Bu intervyular orqali statistik ma'lumotlar orqali ko'rsatib bo'lmaydigan real muammolar, amaliy tajribalar va takliflar aniqlashtirildi. Hududlararo farqlarni aniqlash maqsadida Toshkent shahri, Farg'ona viloyati, Buxoro, Qoraqalpog'iston, Surhandaryo va Jizzax

viloyatlari o'rnak sifatida tanlandi. Bu hududlardagi iqtisodiy sharoitlar, resurs salohiyati, infratuzilma darajasi, aholi bandligi va biznes faoliyatiga oid ijtimoiy muhit ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi kichik biznes va hududiy imkoniyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur va har tomonlama tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, nazariy, statistik va empirik yondashuvlar uyg'unligida olib borildi. Ushbu metodik asos tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliy ahamiyatini ta'minladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Hukumat tomonidan bu sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli dasturlar va yondashuvlar, soliq imtiyozlari, kreditlar, subsidiya va grantlar tizimi orqali tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga zamin yaratilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil yakunlariga qadar O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni 600 mingdan oshgan. Ular mamlakat YalMining qariyb 56 foizini, bandlikning 75 foizini tashkil qilmoqda. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish va savdo sohalarida kichik tadbirkorlikning ulushi katta bo'lib, keyingi yillarda ishlab chiqarish va innovatsion yo'nalishlarda ham o'sish kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida ko'rilganda, kichik biznesning nisbiy rivojlanish darajasi farq qiladi. Masalan, Toshkent shahri, Farg'ona vodiysi viloyatlari, Samarqand va Buxoro kabi yirik markazlarda kichik biznes nisbatan barqaror va faol ishlayotgani kuzatiladi. Aksincha, iqtisodiy imkoniyatlari nisbatan past bo'lgan hududlarda - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida tadbirkorlik faolligi pastroq. 2024 yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining 75% dan ortig'i aynan kichik biznes subyektlari hisoblanadi va ular mamlakat YAIMining qariyb 55 foizini shakllantirmoqda (Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida).[8] Ammo bu ko'rsatkich hududlar kesimida farqli ko'rinishda namoyon bo'lmoqda: Toshkent shahri, Andijon va Farg'ona viloyatlarida kichik biznes sezilarli darajada faollashgan bo'lsa-da, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax va Navoiy viloyatlarida bu soha hali to'liq potensialini namoyon eta olmagan.

O'zbekistonning ayrim hududlarida kichik biznesning hududiy iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi yuqori. Masalan, Andijon viloyatida sanoat zonolari doirasida kichik sanoat korxonalari faoliyati kengaymoqda, Navoiyda esa kichik oltin qazib olish va qayta ishlash subyektlari faoliyat yuritmoqda. Bu kabi hududiy tajribalarni boshqa viloyatlarda ham tadbiq qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznesni rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash real va erishiladigan maqsaddir. Buning uchun hududiy strategiyalarni aniqlik bilan ishlab chiqish, har bir hududning o'ziga xos imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlanish yo'llarini aniqlash, kichik biznesni rivojlantirishga doir barqaror siyosat yuritish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotlar natijasida kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlarning hal qiluvchi omil ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. O'zbekiston hududlarida kichik biznes faoliyatining rivojlanish darajasi o'zgaruvchan bo'lib, bu farqlar asosan iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy va geografik omillar bilan bog'liq ekani aniqlandi. Statistik tahlillar shuni ko'rsatdiki, poytaxt va sanoatlashgan hududlarda (Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg'ona vodiysi) kichik biznes subyektlarining soni, YAIMdagi ulushi, hamda xizmatlar ko'rsatish va savdo sohalaridagi faollik boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqori.

Buning asosiy sabablari sifatida rivojlangan infratuzilma, moliyaviy xizmatlarga oson kirish, yuqori iste'mol bozorining mavjudligi va malakali ishchi kuchining ko'pligi qayd etildi. Shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida kichik biznesning rivojlanish sur'atlari sust bo'lib, bu holat u yerda infratuzilmaning yetarli emasligi, investitsion muhitning zaifligi, davlat dasturlaridan to'liq foydalana olmaslik va kadrlar yetishmovchiligi bilan izohlanadi. Tadqiqotda ishtirok etgan tadbirkorlarning 65 foizi aynan moliyalashtirish va infratuzilma muammolarini asosiy to'siq sifatida.[11]

Aholi daromadlarida o'sish, turmush sharoitida sezilarli o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Statistik ma'lumotlar ham 2016-2020-yillarda yurtimiz odamlarining umumiy daromadlari 2, 6 baravardan ko'proqqa ortganini ko'rsatyapti. Mazkur yo'nalishda jahon maydonida egallab turgan o'rnimiz ham yil sayin yuqorilab bormoqda. Global innovatsion indeksda O'zbekiston 2015-yilga nisbatan o'z o'rnini 29 pog'onaga yaxshilab, 131 ta mamlakat orasida 93-o'rinni, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari orasida 4-o'rinni qayd etgani ta'kidlandi. Bu kabi muvaffaqiyatlarning bosh omillaridan biri - mamlakatimizda olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat hamda uning tarkibidan o'rin olgan chora-tadbirlar yo'nalishlarining to'g'ri shakllantirilgani bilan bog'liq. Intervyular orqali aniqlanishicha, hududiy imkoniyatlardan samarali foydalanayotgan tadbirkorlar o'z faoliyatini mahalliy ehtiyojlarga moslashtira olgan, innovatsion yondashuvni joriy qilgan va davlat dasturlaridan foydalangan subyektlar hisoblanadi.[11]

So'rovnoma natijalariga ko'ra, ushbu hududlardagi tadbirkorlarning 65 foizi moliyalashtirishda qiyinchiliklar, 54 foizi esa infratuzilma muammolari

(elektr energiyasi, yo'l, internet) mavjudligini asosiy to'siq sifatida qayd etdi. Bu esa kichik biznesni rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish va ularga mos strategiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, har bir hududning o'ziga xos tabiiy, iqtisodiy, demografik va ijtimoiy resurslari mavjud bo'lib, ulardan oqilona va samarali foydalanish kichik biznes subyektlarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhim omil hisoblanadi. Shunga qaramay, amaliyotda ushbu imkoniyatlardan foydalanish darajasi yetarli emasligi, infratuzilma rivojlanmaganligi, moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi va tadbirkorlik ko'nikmalarining pastligi kabi muammolar mavjudligi kuzatildi. Bu holatlar hududiy iqtisodiy o'sish va bandlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kichik biznesni rivojlantirishda hududiy salohiyatni to'liq ishga solish uchun davlat, mahalliy boshqaruv organlari, moliya institutlari va tadbirkorlar o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.

Kichik biznes har bir hududda bir xil darajada rivojlanmaydi. Buning asosiy sababi - har bir hududning o'ziga xos tabiiy, iqtisodiy, demografik, infratuzilmaviy va madaniy imkoniyatlarining mavjudligidir. Masalan, suv resurslariga boy hududlarda irrigatsiyaga asoslangan dehqonchilik, sanoat markazlarida esa ishlab chiqarish va texnologik xizmatlar tezroq rivojlanmoqda. Shu sababli, kichik biznesni rivojlantirishda umumiy yondashuv emas, balki **hududiy xususiyatlarga moslashtirilgan, joyiga xos yondashuv** muhim ahamiyat kasb etadi. Hududlar o'rtasida mavjud tafovutlar, resurslardan foydalanish darajasi va infratuzilmaning nomutanosibligi kichik biznes rivojida muhim muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Har bir viloyat va tuman o'zining tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatidan kelib chiqqan holda kichik biznesni rivojlantirishda ixtisoslashgan strategiyani ishlab chiqishi lozim. Bu strategiya mahalliy sharoit, mavjud resurslar va bozor ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Masalan, Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligi va eksportga mo'ljallangan bog'dorchilik, Buxoro va Xorazmda esa turizm va xizmatlar sohasini ustuvor rivojlantirish mumkin. Kichik biznes uchun moliyaviy resurslarga kirishni soddalashtirish va kengaytirish zarur. Imtiyozli kreditlar, subsidiya va grant dasturlarining hududlar kesimida teng taqsimlanmagani aniqlangan. Shu bois, ayniqsa iqtisodiy jihatdan zaif hududlarda alohida investitsiya va mikromoliyaviy fondlar tashkil etilishi, banklar bilan hamkorlikda mikrokreditlar tizimi joriy qilinishi maqsadga muvofiqdir. Har bir tuman markazida tadbirkorlik ofislari, biznes-inkubatorlar yoki maslahatchi punktlar tashkil etilib, bu yerda loyiha tayyorlash, huquqiy maslahatlar, elektron tizimlardan foydalanish va davlat dasturlari haqida

ma'lumotlar taqdim etilishi lozim. Shuningdek, har bir hududda mavjud resurslarni chuqur tahlil qilish asosida sohalar bo'yicha ixtisoslashuvni belgilash, tadbirkorlarga yo'naltirilgan xizmatlarni kengaytirish va bilim saviyasini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari to'plami. – T.: Lex.uz, 2020–2025 yillar.
2. Schumpeter, J. A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Beck, T., & Demirguc-Kunt, A. (2006). *Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint*. *Journal of Banking & Finance*, 30(11), 2931–2943.
4. Storper, M., & Venables, A. J. (2004). *Buzz: Face-to-Face Contact and the Urban Economy*. *Journal of Economic Geography*, 4(4), 351–370.
5. Axmedov, M. “Hududiy rivojlanishda kichik biznesning roli”, T.: Fan, 2021.
6. Nurmatov, A. va boshqalar. “Kichik va o'rta biznes asoslari”. – T.: Iqtisodiyot, 2020.
7. Hamroyev, I. “Innovatsiyalar va raqamli iqtisodiyotda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari”, – T.: Innovatsiya, 2023.
8. A.N. Li, S.I. Shevchenko. “Korxonalar moliyaviy tahlilining asosiy tamoyillari”, – T.: Moliyaviy qonunlar to'plami, 1995.
9. Shadmanov, Erkin Sherkulovich; Hamroev, Sherzod Torakul ogli. *Development Directions of Small Business and Private Entrepreneurship in Uzbekistan in Pandemy Conditions*. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, Vol. 2, No. 2, 2022, pp. 7-1
10. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va BMTning kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha hisobotlari, 2018–2024.
11. Davlat statistika qo'mitasi (2022). *O'zbekiston iqtisodiy ko'rsatkichlari hisobotlari*. Toshken

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

